

“Biz Uchinchi Renessans masalasini strategik vazifa sifatida oldimizga qo‘yib, uni milliy g‘oya darajasiga ko‘tarmoqdamiz”.

Shavkat MIRZIYOEV O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida O‘zbekistonda yangi Uyg‘onish davri, ya’ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratish asosiy maqsad etib belgilandi. Shuning uchun, avvalo, Renessansning tarixiy ildizlari va asoslarini, Uchinchi Renessansning mazmun-mohiyatini har birimiz chuqur anglab olishimiz zarur.

So‘nggi davrda Markaziy Osiyo va qo‘shni hududlarda olib borilgan tarixiy, arxeologik va etnografik tadqiqotlar mazkur mintaqada qadimgi Sharq sivilizatsiyasining shakllanishi va rivojlanishida o‘ziga xos o‘rin tutganligini ko‘rsatuvchi ko‘plab ashyoviy dalillarni yuzaga chiqardi. Ularga asoslanib, “Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi”, “O‘rta Osiyo sivilizatsiyasi”, “Turon yoki Turkiston sivilizatsiyasi” kabi tarixiy tushunchalardan ilmiy tadqiqotlarda keng foydalanilmoqda.

“Renessans” so‘zi – fransuzcha “Renaissance”, italyancha – “Rinascimento” – qayta yuzaga kelmoq, yangidan tug‘ilmoq, qayta tirilish, uyg‘onish – degan ma’nolarni anglatadi.

“Uyg‘onish” istilohi ilk bor XVI asrda me’mor, musavvir va san’at tarixchisi Jorj Vazari (1511-1574) tomonidan G‘arbiy Yevropada burjua munosabatlari rivojlanishining dastlabki bosqichi bilan shartlangan tarixiy davrni tavsiflash uchun qo‘llanilgan. Ushbu istilohning hozir biz bildirgan ma’nosi farang tarixchisi Jyul Mishle (1798-1874) tomonidan XIX asrda joriy qilindi.

Tarix faniga “Musulmon Renessansi” tushunchasi taniqli Avstriya sharqshunosi Adam Mes (1876-1946) tomonidan XX asr boshlarida, yanada aniqrog‘i, 1909 yilda kiritilgan. Olim “Sharq” atamasini tarixiy mazmunda ishlatib, bunda O‘rta yer dengizidan to Yevropa qit‘asigacha (subkontinentgacha) bo‘lgan yurtlarni va bu hududlarda IX-XII asrlarda madaniyat yuksaklarga ko‘tarilganligini ko‘zda tutgan. Mazkur o‘lkalar qadimiy sivilizatsiya beshigidir.

Sobiq sovet davrida tarix va o'quv adabiyotlarida faqat G'arb Uyg'onish davri haqida gap borardi. Sharqdagi Uyg'onish jarayoni haqida esa lom-lim deyilmacdi. Chunki tarix fanida yevropotsentrizm g'oyasi hukmron, G'arb ilg'or, Sharq qoloq aqidasi ustuvor edi. Vaholanki, o'sha davrda avstriyalik olim A.Мец, rus olimi Н.Конрад Sharq Renessansi haqida xolisona fikrlarini bildirishgan. O'zbek olimlaridan И.Мўминов, М.Хайруллаев, Ф.Сулаймонова, Б.Қосимов, Т.Ширинов ham Sharq Uyg'onish davri haqidagi teran fikrlarni salmoqli asarlarida bayon etgan.

Temuriylar Renessansi – Musulmon Renessansi Sharq tamadduni tojidagi javohirlardan biri sanalib, uni o'rganishga bag'ishlangan ba'zi tadqiqotlar yaratildi.

Shu ma'noda, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2017 yil 19 sentyabrda BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida tarixda birinchi marotaba: "Markaziy Osiyo Uyg'onish davrining ko'plab yorqin namoyandalarining islom va jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan bebaho hissasini alohida qayd etmoqchiman", deb ta'kidlagani bejiz emas.

Markaziy Osiyo mintaqasi, xususan, bugungi O'zbekiston hududi tarixda ilm-fan, madaniyat va san'atning qadimiy beshigi sifatida mavjud bo'lib kelgan. Bu haqda islomga qadar mavjud manbalarda ham ma'lumotlar keltirilgan. Jumladan, "Avesto"da ham ma'naviy muhit, ilm-fan va ta'lim-tarbiya xususida o'z davri uchun ilg'or g'oyalar ilgari surilgan.

O'zbekiston hududlari tarixan Buyuk ipak yo'lining markazi va uning turli tarmoqlari kesishgan nuqtada joylashgan. Shuning uchun Sharq va jahonning turli mamlakatlaridan diniy va dunyoviy bilim olish istagidagi insonlar hamisha Samarqand, Buxoro, Xorazm, Nasaf (Qarshi), Kesh (Shahrisabz), Toshkent, Farg'ona kabi ko'hna madaniyat markazlariga intilganlar.

Birinchi Sharq Uyg'onish davri — IX-XII asrlarda mintaqamizda yuz bergan "Musulmon Renessansi" hisoblanadi.

Prezidentimiz rahnamoligida yurtimizda ulug‘ niyatlar bilan poydevori qo‘yilayotgan yangi Uyg‘onish davrining yorqin sahifalarga boy buyuk tarixi yaratilmoqda.

Eng asosiysi, farzandlarimizning iste’dod va qobiliyati, ezgu intilishlarini to‘liq ro‘yobga chiqarish, ijtimoiy faolligini oshirish, hayotda munosib o‘rin egallashlari uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berish bundan buyon ham O‘zbekistonda davlat va jamiyatning bosh maqsadi bo‘lib qoladi.

Zero, davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, “Xalqimizning ulug‘vor qudrati jo‘sh urgan hozirgi zamonda O‘zbekistonda yangi bir uyg‘onish — Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda, desak, ayni haqiqat bo‘ladi. Chunki bugungi O‘zbekiston — kechagi O‘zbekiston emas. Bugungi xalqimiz ham kechagi xalq emas”.

Uchinchi Renessans milliy g‘oyaga aylanishi zarur

Milliy g‘oya aslida muayyan xalqning oliy istiqbol maqsadini bir necha so‘zlarda yoki iborada mujassam ifodalovchi tushunchalar yoki shior, iboradir. U xalqni o‘sha maqsad yo‘lida birlashtiradi, safarbar etadi. Xalq barcha sa’y-harakatlarini, intilishlarini, bunyodkorlik faoliyatini unga muvofiqlashtiradi. Zarur bo‘lsa, iqtisodiy, ijtimoiy munosabatlarini, mamlakatning huquqiy, siyosiy, mafkuraviy asoslarini, ta’lim-tarbiya tizimini chuqur isloh qiladi. Milliy g‘oyaning asosiy vazifalaridan biri, avvalo, xalqning jipsligini, birligini, mamlakatning hududiy yaxlitligini saqlash va mustahkamlashdir. Ikkinchidan, millatning oliy maqsadini, rivojlanish marralarini, mo‘ljallarini umumiy tarzda aniqlaydi. Milliy g‘oya turli iboralarda ifodalanishi mumkin. Lekin ifoda shaklidan qat’i nazar, xalqqa istiqbolni, ijtimoiy mo‘ljalni ko‘rsatishi shart.

Istiqlolga erishganimizdan keyin dastlabki yillarda “O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat” shiori olg‘a surildi. U amalda milliy g‘oya vazifasini o‘tadi va xalqni birlashtirishda, safarbar etishda katta rol o‘ynadi. Mazkur jozibali shiorda urg‘u jamiyatga emas, davlatga berilgandi. Keyinchalik milliy g‘oya shaklan takomillashtirilganda “Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot” iborasi olg‘a surildi. Unda urg‘u siyosiy tashkilotga (davlatga) emas, balki har kishi uchun, siyosiy, mafkuraviy qarashlaridan qat’i nazar, birdek aziz Vatanga hamda shaxs va jamiyat hech qachon befarq bo‘lmaydigan erkinlikka va farovonlikka qo‘yildi. Milliy g‘oyaning bunday tushunchaviy ifodasi ancha mukammallik kasb etdi.

Ammo uning mazmunini, uni amalga oshirish vazifalarini ochib berishga yetarlicha mas'uliyat bilan yondashilmadi. Ayniqsa, u islohotlarning yo'nalishlari, sohalari, turli bosqichlari, amaldagi va ehtimoldagi muammolari bilan bog'lanmadi. Natijada u mafkuraviy chaqiriq, quruq shior darajasida qolib ketdi. Aniq muammolar va vazifalardan yiroqligi uchun odamlarga ta'siri asta-sekin susaya boshladi.

Katta qiziqish va xayrixohlik bilan kutib olingan "Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot" bugun iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy hayotimizga real ta'sir ko'rsatayotirmi, degan savolga aniq javob berish ancha mushkul. Milliy g'oyani jonlantirish uchun uni Uchinchi Renessans g'oyasi bilan boyitish zarur. Faqat Uchinchi Renessansni amalga oshirib, biz ozod va obod Vatanda erkin va farovon hayotni barpo eta olamiz. Yoki, yana qulayrog'i, Uchinchi Renessansga erishishni milliy g'oyaning yangi ifodasi, deb e'lon qilish maqsadga muvofiq.

Milliy g'oya joriy vazifalarni emas, balki strategik oliy maqsadni ifodalaydi. Shu ma'noda Uchinchi Renessans g'oyasi istiqbolga intilishga juda mos keladi. Mazkur g'oyaning safarbarlik kuchi, umuman, mafkuraviy salohiyati juda yuqori. Ayni chog'da o'tmish tariximizning shonli sahifalari, buyuk ajdodlarimizning bunyodkorlik va ijodkorlik salohiyati bilan bog'lanadi. Bizga mazkur tushuncha kimlarning vorislari ekanimizni eslatib turadi. Yangi Renessans yo'lida xalqimiz turli mayda, vaqtinchalik masalalarga, guruhbozlik, mahalliychilik, ayirmachilik, mafkuraviy mutaassiblikning har xil ko'rinishlariga chalg'imasligi kerak. Tarix saboqlarini unutishga haqqimiz yo'q.

Uchinchi Renessans g'oyasi milliy ruhiyatimizga, xalqimiz armon-orzusiga yaqin. Zotan, xalq ilgari oqqan daryosi yana oqishini astoydil istaydi.

Uchinchi Renessans g'oyasini hayotiy va ta'sirchan milliy g'oyaga aylantirishni nimadan boshlamoq kerak?

Holva degan bilan og'iz chuchimaganidek, Renessans degan bilan u sodir bo'lib qolmaydi. Buning uchun har tomonlama puxta o'ylangan siyosat olib borilishi, xalqda ruhiy ko'tarilish, qat'iy irodali intilish yuz bermog'i zarur.

Avvalo, tushuncha mazmunini aniq ochib berish, aholining barcha qatlamlari, avvalo, yoshlar ongiga yetkazish kerak. O'tmish renessanslari davrida ajdodlarimiz nimalarga erishganini, jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasini, boshqa xalqlar, mintaqalar yutuqlari bilan taqqoslab, jahonning yetakchi madaniyatlaridan, ilm-fani, san'ati va adabiyotlaridan birini, ilg'or

ijtimoiy fikru qarashlarini yaratganini qisqa, lo‘nda, dabdabali jumalalarsiz yoritish zarur.

Shuningdek, ularning inqiroz sabablari xolis tahlil etilmog‘i lozim. Buyuk geografik kashfiyotlar tufayli Buyuk Ipak yo‘lining to‘xtab qolgani obyektiv sabablardan biri bo‘lsa-da, ichki va tashqi nizolar, taxt talashlar, ayirmachilik va uch davlatga bo‘linib ketish, inson komilligi faqat insonning ichki dunyosiga qaratilib, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga yetarlicha e‘tibor bermaslik kabi subyektiv omillar inqirozni keltirib chiqargan asosiy sabablar edi. Tarixdan saboq olish, tegishli xulosa chiqarish uchun bular yoshlar, aholi ongiga yetkazilishi kerak. Biz ko‘proq avvalgi uyg‘onish davrlarimizning yutuqlarini faxr bilan e‘tirof etib, negadir ularning inqirozi sabablari haqida gapirishni unchalik xushlamaymiz.

Birinchi va ikkinchi renessanslarning tarixiy sharoiti va davri talablari, imkoniyatlarini haqqoniy baholab, Yangi Rennessansning tarixiy sharoitlari va talablari mutlaqo o‘zgacha ekanini asoslash, dalillash maqsadga muvofiq.

Uchinchi Rennessans to‘rtinchi sanoat inqilobi bilan muvoziy, bir vaqtda kechadi. Shu sababdan u, avvalo, texnologik inqilobni, yuksak rivojlangan raqamli smart (aqlli) iqtisodiyotni taqozo qiladi. O‘z navbatida, raqamli, smart iqtisodiyotga o‘tish uchun ishlab chiqarishni bosqichma-bosqich modernizatsiya qilish, avtomatlashtirish, robotlashtirish talab etiladi. Mazkur jarayon O‘zbekistonda qanday bosqichlarda amalga oshirilishi, uning moddiy-moliyaviy, insoniy, ilmiy va ilmiy-texnologik ta‘minoti bo‘yicha istiqbolli aniq kompleks dasturlar yangi Rennessans g‘oyasi bilan mafkuraviy jihatdan bog‘lanishi shart. Ilmiy, ilmiy-texnologik ta‘minot taqozosidan kelib chiqib, ta‘lim-tarbiya sohasining barcha bo‘g‘inlari uzluksiz isloh etib borilishi kerak.

Avvalgi ikkala Rennessans mustahkam ma‘naviy-mafkuraviy negizda, birinchi galda yuksak axloqiylik, adolat, ilmga tashnalik va bag‘rikenglik asosida yuz bergan. Islom halollik va to‘g‘rilikni, insof va adolatni, ilm va amaliy faollikni hamma narsadan ustun qo‘ygan. “Ilm izlab Chinga bo‘lsa-da, bor”, “Sendan harakat — mendan barakat”, “Bir soatlik adolat barcha insu jinslarning qirq kunlik ibodatidan ustun” va ko‘plab shu kabi hadislar, naqllar ajdodlarimizning ijtimoiy mo‘ljaliga aylangan edi.

“Baytul hikma”da 40 dan ortiq tarjimonlar qadimgi yunon tilidan, 14 nafar tarjimon sanskrit tilidan, 4 nafar tarjimon Xitoy tilidan ilmiy, tibbiy va falsafiy asarlarni arabchaga o‘giran. Bundan tashqari, lotin, suryoniy, ibroniy tillardan tarjimonlar bo‘lgan. Ilmiy haqiqat diniy mansublikdan ustun

qo'yilgan. Bu asar ma'jusiylarniki, bunisi kofirlarniki deb inkor qilinmagan. Ajdodlarimiz til o'rganib, ilm ortidan dunyoni kezgan. Mahdudlik qobig'iga o'ralib qolmagan, turg'unlik, mahalliychilik ularga yot bo'lgan.

“Baytul hikma”, Xorazm Ma'mun Akademiyasi, umuman, islom olami olimlari faoliyati o'sha davrdagi xalqaro ilmiy integratsiyaning eng yorqin namunasidir. Birinchi va ikkinchi renessanslarning ma'naviy asoslarini va sabablarini hamda keyingi inqirozini chuqur o'rganmasdan, biz Uchinchi Rennessansni muvaffaqiyatli amalga oshira olmaymiz. Bugun ham bizga g'oyaviy va ilmiy tolerantlik (bag'rikenglik), ilmga, haqiqatga tashnalik, milliy mahdudlikni, g'oyaviy mutaassiblikni tamomila inkor etish xos bo'lmog'i lozim.

Yuqoridagilardan ayonlashmoqdaki, Uchinchi Rennessans bizdan xalqaro hamjamiyatga ilm-fan, texnologiyalar, axborot, madaniyat va iqtisodiyot sohalarida yana-da chuqurroq integratsiya bo'lishini talab etadi. Ammo o'zligimizni, tilimizni, milliy xususiyatlarimizni, ma'naviyatimizni saqlab qolishimiz shart. Bu esa ta'lim-tarbiya tizimiga jiddiy e'tibor qaratishni bildiradi.

Inson — Yangi Rennessans ijodkoridir

Har bir jamiyat o'ziga zarur shaxsni tarbiyalaydi. Unga o'z taraqqiyoti darajasi va tendensiyalaridan kelib chiqib axloqiy, e'tiqodiy, kasbiy-professional, huquqiy va boshqa qator talablar qo'yadi. Jamiyat taraqqiyotining pirovard maqsadi ham inson, uning farovon, erkin va xavfsiz turmush kechirishidir. Jamiyat talabiga to'liq javob beradigan kishi turli davrlarda har xil atalgan. Yusuf Xos Hojib uni “tugal er”, Forobiy “fozil kishi”, tasavvuf namoyandalari “komil inson” deb ataganlar. “Har tomonlama rivojlangan shaxs”, “uyg'un rivojlangan shaxs” atamaları ham qo'llanilgan.

Mustaqillikdan keyin biz shaxsga nisbatan “komil inson”, yosh avlodga nisbatan “barkamol avlod” atamalarini qo'llay boshladik. Gap atamada emas. Qanday sifatni qo'llamaylik, kelajak insonini tarbiyalashda biz, avvalo, jamiyat taraqqiyoti tendensiyalarini va ayni paytda milliy ma'naviyatimiz xususiyatlarini hisobga olmog'imiz lozim. Binobarin, sun'iy intellekt va yuksak texnologiyalarga tayanadigan “to'rtinchi sanoat inqilobi” insonga qo'yadigan talablarini oldindan modellashtirishimiz va ta'lim-tarbiya tizimini ularga moslashtirishiz kerak.

Xuddi shunday milliy identligimizni saqlab qolish uchun ona tilimizni, tariximizni, adabiyotimiz va san'atimizni yetarlicha o'rgatishning optimal yo'llarini topmog'imiz lozim. Urf-odatlarimiz ham takomillashtirilishi va

zamonaviylashtirilishi juda zarur. Ijtimoiy ongda, odamlarning xatti-harakatlarida burilish yuz berishi, yangi ideallar va qadriyatlar qaror topmog'i darkor.

Uchinchi Renessans g'oyasini o'qitish va keng jamoatchilik ongiga yetkazishda nihoyatda ehtiyotkor bo'lish, me'yordan oshirib yubormaslik talab etiladi. Ma'furaviy ishlarda sovet davridan qolgan bir illat bor: har qanday g'oya targ'ibotini kompaniyabozlikka aylantiramiz.

Bilganni ham, bilmaganni ham ertayu kech tinimsiz gapirtiramiz, odamlarning me'dasiga tegib qolganini sezmaymiz. G'oyaning mazmunini asta-sekin jo'nlashtiramiz, ba'zi jihatlarini esa beixtiyor soxtalashtirib qo'yamiz.

Dialektika qonuniga binoan me'yor buzilsa, har qanday jarayon o'zining inkoriga aylanadi. Oddiy tilda bu "qosh qo'yaman deb, ko'z chiqarish" deyiladi. 2000-yilda e'lon qilingan milliy g'oya ana shunday munosabatga uchradi. Shoshib uni ta'limning barcha bo'g'inlariga joriy qildik, lekin g'oyaning ilmiy tadqiqotiga va asoslanishiga deyarli e'tibor bermadik. Islohotlarning aniq vazifalari va sohalarining xususiyatlari bilan bog'lab, jonli mazmun bag'ishlash xayolimizga kelmadi. Natijada u ma'kurabozlik domiga tushib qoldi.

Uchinchi Renessans g'oyasining oraliq bosqich vazifalari aniqlanishi kerak. Masalan, 2030-yilda, 2040 — 2050-yillarda biz aholi jon boshiga taxminan qancha yalpi ichki mahsulot ishlab chiqaramiz, jahon reytingida taxminan qanday o'rinlarga ko'tarilamiz. Ta'lim, madaniyat, ilm-fan sohalarida qanday ko'rsatkichlarni, marralarni zabt etamiz. Ular bo'yicha mo'ljallar belgilanishi lozim. Shunda mazkur g'oyaning safarbarlik ta'siri konkret va kuchli bo'ladi. Ammo mo'ljallar havoyi bo'lmasligi, konkret raqamlardan tashkil topmasligi kerak. Yangi AKT, nanotexnologiyalar, biotexnologiyalar, sun'iy intellekt yaratish va shu kabi yo'nalishlardagi vazifalar ham e'tibordan chetda qolmasligi zarur.

Har qanday buyuk rejalar, buyuk g'oyalar inson ehtiyojlari, turmushi yaxshilanishi, erkinligi ortishi va ma'naviy kamoloti bilan bevosita bog'lansagina, hayotiylik va reallik kasb etadi. Aks holda u havoyi orzu havasligicha qolib ketadi.

Prezidentimizning tabrik nutqida asosiy yo'nalishlar va vazifalar belgilab berildi. Endi hammamiz, butun jamiyatimiz, ularni amalga oshirishga kirishmog'imiz lozim